

**TASVIRIY SAN'AT VOSITALARI ORQALI INKLYUZIV TA'LIM
JARAYONIDA ESTETIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING
PEDAGOGIK ASOSLARI**

Xolmirzayeva Fazilatxon Obidjon qizi

*Namangan viloyati Madaniyat boshqarmasi 18- sonli Bolalar Musiqa va
san'at maktabi tasviriy san'at o'qituvchisi*

xolmirzayevafazilat5@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tasviriy san'at vositalaridan foydalanish orqali inklyuziv ta'lim jarayonida estetik tarbiyani shakllantirishning pedagogik asoslari tahlil etilgan. Inklyuziv ta'lim sharoitida estetik tarbiya o'quvchilarning individual qobiliyatlari, hissiy kechinmalari hamda ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi hamda san'atning didaktik, korreksion va kommunikativ funksiyalari hamda ularning inklyuziv ta'limda qo'llanish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, tasviriy san'at mashg'ulotlarida rang, shakl, faktura, kompozitsiya kabi ifoda vositalarining pedagogik imkoniyatlari ham ilmiy jihatdan asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *tasviriy san'at, inklyuziv ta'lim, estetik tarbiya, pedagogik asoslar, ijodiy tafakkur, san'at vositalari, korreksion metodika, shaxsiy rivojlanish.*

**THE PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF AESTHETIC EDUCATION IN THE
INCLUSIVE EDUCATION OF VISUAL ARTS**

Annotation: *This article analyzes the pedagogical principles of aesthetic education in the context of inclusive education with the use of fine arts teachers. In the context of inclusive education, aesthetic education is characterized by the importance of individual abilities, emotional experiences and the development of creative ideas, as well as the didactic, corrective and communicative functions of art, as well as the use of inclusive textbooks. intended. Therefore, the pedagogical possibilities of color, shape, texture, composition in the field of visual arts are based on scientific efforts.*

Keywords: *fine arts, inclusive education, aesthetic education, pedagogical principles, creative thinking, art education, correction methodology, personal development.*

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В
ИНКЛЮЗИВНОМ ОБРАЗОВАНИИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА**

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические принципы эстетического воспитания в условиях инклюзивного образования с привлечением учителей изобразительного искусства. В условиях инклюзивного образования эстетическое воспитание характеризуется важностью индивидуальных способностей, эмоциональных переживаний и развития творческих идей, а также дидактической, коррекционной и коммуникативной функций искусства, а также использованием инклюзивных учебников. Таким образом, педагогические возможности цвета, формы, фактуры, композиции в области изобразительного искусства основаны на научных усилиях.

Ключевые слова: изобразительное искусство, инклюзивное образование, эстетическое воспитание, педагогические принципы, творческое мышление, художественное образование, коррекционные методики, личностное развитие.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida inklyuzivlik g'oyasi har bir shaxsning o'ziga xos imkoniyatlarini hisobga olishga, ularning ijodiy salohiyatini ochishga yo'naltirilgan. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi – jismoniy, ruhiy yoki ijtimoiy farqli o'quvchilarning umumiy ta'lim tizimida to'laqonli ishtirokini ta'minlashdir. Shu jarayonda tasviriy san'at estetik tarbiya vositasi sifatida o'quvchilar qalbida go'zallikni idrok etish, his etish va yaratish qobiliyatlarini shakllantiradi. Estetik tarbiya nafaqat badiiy didni, balki insoniy fazilatlarini – sabr-toqat, mehr, ijobiy hissiyot, tafakkur va ijtimoiy moslashuvni ham tarbiyalaydi. Shu bois, tasviriy san'at darslari inklyuziv ta'lim jarayonining eng muhim pedagogik komponentlaridan biridir. Inklyuziv ta'lim jarayonida estetik tarbiyani shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogika fanida o'ta dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki bugungi kunda ta'limning asosiy maqsadi nafaqat bilim berish, balki har bir shaxsning o'ziga xos ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning hissiy dunyosini boyitish va o'zini jamiyatda erkin ifoda eta oladigan barkamol insonni tarbiyalashdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, tasviriy san'at vositalaridan foydalanish inklyuziv ta'limda o'quvchilarning estetik didini, go'zallikka nisbatan munosabatini va ichki dunyosini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

METADALOGIYA

Tasviriy san'atning o'ziga xosligi shundaki, u so'zsiz muloqot vositasidir. Har bir bola, u qanday jismoniy yoki psixologik holatda bo'lishidan qat'i nazar, rasm chizish, ranglar bilan o'ynash yoki shakllarni yaratish orqali o'z his-tuyg'ularini ifoda etishi mumkin. Bu jarayon o'quvchini ruhiy jihatdan yengillatadi, ichki kechinmalarini badiiy shaklda bayon etishga imkon beradi. Shuningdek, estetik tarbiya orqali insonning nafosatga bo'lgan ehtiyoji

qondiriladi, go'zallikka intilish, tabiatni, san'atni, insonni sevish, mehr va sabr kabi ijobiy xislatlar shakllanadi. Inklyuziv sinfda o'qituvchi ana shu imkoniyatlarni to'g'ri yo'naltira bilsa, o'quvchilarda o'ziga ishonch, ijodiy faollik va ijtimoiy moslashuv jarayoni tezlashadi. Bunda pedagogning roli juda muhimdir. U nafaqat o'rgatuvchi, balki motivatsiya beruvchi, ruhiy qo'llab-quvvatlovchi, estetik yetakchi sifatida faoliyat yuritadi. O'qituvchi o'quvchining individual xususiyatlarini, psixologik ehtiyojlarini va san'at orqali ifoda etish imkoniyatlarini chuqur tahlil qilishi kerak. Masalan, eshitishda nuqsoni bor o'quvchi uchun vizual obrazlar, rang kontrasti, shakl tahlili asosiy vosita bo'lsa, harakat chekloviga ega bola uchun mozaika, kollaj, tekstura bilan ishlash samarali bo'ladi. Shunday qilib, san'at vositalarining o'qituvchi tomonidan to'g'ri tanlanishi inklyuziv ta'limda estetik tarbiya samaradorligini belgilovchi asosiy omildir. Estetik tarbiya tushunchasi Sharq va G'arb pedagogikasida qadimdan o'rganib kelingan. A.N. Leontyev, B.M. Nemenskiy, L.S. Vygotskiy, Sh. Mirziyoyev, H. Yoqubov, M. Mahmudov kabi olimlar estetik idrok va ijodiy tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikka e'tibor qaratganlar. Inklyuziv ta'limda bu jarayon ikki yo'nalishda kechadi:

Korreksion yo'nalish – o'quvchilarning psixofiziologik cheklovlarini yengillashtirish;

Ijodiy yo'nalish – ularning o'zini ifoda etish, ichki dunyosini tasvir orqali bayon etish imkoniyatini kengaytirish.

Tasviriy san'at vositalari – rang, chiziq, ritm, shakl, kompozitsiya – o'quvchilar hissiyotlariga bevosita ta'sir etadi. Bu vositalar yordamida o'quvchi o'z holatini, kechinmalarini, orzularini aks ettiradi va shu orqali o'z-o'zini anglash darajasiga ko'tariladi. Inklyuziv ta'limda san'atning o'rni o'quvchi shaxsini to'liq idrok etish va uni jamiyatga moslashtirish jarayoni bilan chambarchas bog'liq. O'qituvchi nafaqat badiiy ko'nikmalarni o'rgatadi, balki:

1-o'quvchi psixologik holatini tushunadi;

2-kommunikativ muhit yaratadi;

3-har bir bolaga mos metod va topshiriqlarni tanlaydi;

4-rang va shakl orqali o'zaro muloqotga undaydi.

Masalan, rassomlik mashg'ulotlarida turli faktura va ranglar bilan ishlash motorika rivojiga, e'tibor va idrokni mustahkamlashga xizmat qiladi. Grafika va dekorativ kompozitsiya mashg'ulotlari esa diqqatni jamlash, tafakkur aniqligi va tasavvurni rivojlantiradi. Estetik tarbiyani samarali shakllantirish uchun quyidagi pedagogik asoslar muhim:

Individual yondashuv – har bir o'quvchining imkoniyat darajasini aniqlab, mos topshiriq berish.

Ko'rsatmalilik va amaliy faoliyat – san'at asarlari namunalaridan foydalanish, vizual tahlil.

Emotsional-motivatsion muhit yaratish – o'quvchini ruhlantiruvchi, ijobiy hislar uyg'otuvchi sharoitni ta'minlash.

Integratsion yondashuv – tasviriy san'atni musiqa, adabiyot, me'morchilik kabi fanlar bilan uyg'unlashtirish.

Bu metodlar o'quvchilarda go'zallikka nisbatan estetik munosabatni shakllantirib, ularning o'zini anglash va jamiyatda faol ishtirok etish imkonini kengaytiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tasviriy san'at jarayoni o'quvchining tafakkurini, idrokini, diqqatini, sabr-toqatini va muloqot madaniyatini rivojlantiradi. Ayniqsa, ranglar bilan ishlash bolaning hissiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, iliq ranglar – ishonch va quvonch hissini, sovuq ranglar esa tinchlik va xotirjamlikni uyg'otadi. Shu bois, o'qituvchi rang tanlash jarayonini pedagogik maqsadga yo'naltirgan holda tashkil qilishi zarur. Bu orqali o'quvchi o'z his-tuyg'ularini boshqarish, ularni badiiy shaklda ifoda etish va shu orqali ruhiy barqarorlikka erishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Estetik tarbiya, aslida, san'at orqali insonning ichki dunyosini uyg'otish, uni go'zallikka ishonch bilan qarashga o'rgatish jarayonidir. Inklyuziv ta'lim sharoitida bu jarayon ikki yo'nalishda kechadi: bir tomondan, o'quvchining estetik idroki rivojlanadi, ikkinchi tomondan, u o'zini jamiyatning ajralmas qismi sifatida his eta boshlaydi. Shu sababli san'at mashg'ulotlari faqat amaliy chizish jarayoni bo'lib qolmasdan, balki hissiy muloqot, ruhiy davolanish va ijtimoiy integratsiya vositasiga aylanadi. Bunday yondashuvda o'qituvchi o'z metodikasini individual yondashuv, ko'rgazmalilik, emotsional qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish asosida qurishi kerak. Masalan, mashg'ulot davomida o'quvchilarning asarlari muhokama qilinishi, ularning badiiy yechimlari maqталishi, ijobiy baholanishi kerak. Bu ularni o'ziga ishonchli, faol va estetik jihatdan sezgir shaxs sifatida shakllantiradi.

Estetik tarbiyaning pedagogik mohiyati shundan iboratki, u o'quvchini "go'zallikni yaratish" jarayoniga faol jalb etadi. Bu jarayon davomida o'quvchi faqat o'rganmaydi, balki o'z tajribasini san'at tiliga ko'chiradi. Masalan, rasm chizish yoki loydan haykal yasash jarayonida o'quvchi har bir tafsilotga e'tibor qaratadi – bu esa idrokni, sabrni, tahliliy fikrlashni va mantiqiy izchillikni rivojlantiradi. Shu bilan birga, estetik faoliyat o'quvchining hissiy-intellektual muvozanatini shakllantiradi, bu esa ularning ijtimoiy moslashuv jarayonida muhim rol o'ynaydi. Pedagogik tahlil shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'limda san'at faqat qo'shimcha mashg'ulot sifatida emas, balki psixopedagogik korreksiya vositasi sifatida qaralishi zarur. San'at o'quvchining shaxsiy rivojlanishida integratsion funktsiya bajaradi: u o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida muloqot ko'prigini yaratadi, ijobiy

hissiyotlar orqali o'rganish jarayonini yengillashtiradi, va eng muhimi – o'quvchining o'zini jamiyatning teng a'zosi sifatida his etishiga yordam beradi. Shu sababli, o'qituvchi estetik tarbiyani faqat go'zallikni o'rgatish emas, balki insonni tarbiyalashning noan'anaviy, hissiy-intellektual mexanizmi sifatida qabul qilishi kerak.

Tasviriy san'atning estetik imkoniyatlari o'z mohiyatiga ko'ra integrativdir. U nafaqat ko'rish orqali, balki sezish, eshitish, hissiy tajriba orqali ham idrok etiladi. Masalan, faktura bilan ishlash – materialning sirt tuzilishini his qilish orqali bolaning taktil sezgilarini faollashtiradi, bu esa uning psixomotor rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ranglar bilan tajriba esa bolaning hissiy reaksiyalarini boshqarish, kayfiyatni o'zgartirish, ijobiy energiyani faollashtirishga yordam beradi. Demak, san'at vositalarining har biri estetik tarbiyaning psixofiziologik komponentlarini faollashtiruvchi kuchli instrument hisoblanadi. Shuningdek, estetik tarbiyaning ijtimoiy o'lchovini ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Inklyuziv muhitda o'quvchilar o'zaro ijodiy hamkorlikda ishlaydilar – bu jarayonda ular bir-birlarini hurmat qilish, tinglash, yordam berish, estetik qarashlarda farqlilikni qabul qilishni o'rganadilar. Natijada estetik tarbiya insoniy munosabatlar madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa, jamiyatda bag'rikenglik, hamjihatlik, hamdardlik kabi ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarning rivojlanishiga sabab bo'ladi.

NATIJALAR

Inklyuziv ta'lim jarayonida estetik tarbiyani shakllantirish masalasini tasviriy san'at vositalari orqali amalga oshirish – bu faqat didaktik yoki metodik masala emas, balki chuqur falsafiy, psixologik va ijtimoiy mazmunga ega bo'lgan jarayondir. Chunki estetik tarbiya insonning borliqni, hayotni, jamiyatni va o'zini idrok etish shakliga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, inklyuziv ta'lim sharoitida bu jarayon o'quvchining o'z imkoniyatlarini anglash, o'z qadrini his qilish, jamiyatda o'z o'rnini topishga bo'lgan ishonchini mustahkamlashning eng nozik yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Tasviriy san'atda har bir chiziq, shakl, rang yoki kompozitsiya elementining semantik yuklamasi bor. Bu elementlar inson ruhiy holatining ifodasi sifatida xizmat qiladi. Inklyuziv sinfdagi bola, ayniqsa, nutqida, muloqotida yoki hissiy ifodasida cheklov bo'lsa, san'at orqali o'z ichki olamini ochib beradi. Psixologlar fikricha, bunday jarayon terapevtik ahamiyatga ega: bola o'z kechinmalarini ifoda etar ekan, ularni anglaydi, ularni boshqarishni o'rganadi va ruhiy yengillik hissini tuyadi. Shu ma'noda, estetik tarbiya – bu san'at orqali ichki muvozanatni tiklash, o'zlikni kashf etish jarayonidir.

Tasviriy san'at vositalari yordamida estetik tarbiya jarayoni har bir o'quvchining o'z qadrini bilish, ijod orqali o'zini anglash, atrofdagi voqelikni go'zallik mezonida baholashga o'rgatadi. Ayniqsa, inklyuziv ta'limda san'at o'quvchi uchun muloqot, ijobiy tajriba va ruhiy tiklanish maydoniga aylanadi. Shu bois, san'at o'qituvchisi bu jarayonni puxta tashkil

qilgan taqdirda, estetik tarbiya shaxsning ma'naviy kamolotini, ijtimoiy faoliyatini va psixologik barqarorligini ta'minlaydi. Umuman olganda, inklyuziv ta'limda tasviriy san'at vositalari orqali estetik tarbiya shakllanishi pedagogik tizimning insonparvarlik, ijodkorlik va madaniy qadriyatlarga asoslangan eng samarali yo'nalishlaridan biridir. Bu yondashuv shaxsni nafaqat san'atni sevishga, balki hayotga, odamlarga, tabiatga go'zallik mezonida qarashga o'rgatadi. Shu orqali ta'lim jarayoni faqat bilim beruvchi emas, balki ruhiy va ma'naviy jihatdan boyituvchi, insoniylikni kamolga yetkazuvchi muhitga aylanadi.

XULOSA

Inklyuziv ta'lim jarayonida tasviriy san'at vositalari orqali estetik tarbiyani shakllantirish bu nafaqat ta'limiy, balki chuqur ijtimoiy va ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan murakkab pedagogik jarayondir. Chunki estetik tarbiya inson shaxsini butunligicha shakllantirish, unda nafosatni his etish, go'zallikka intilish, ichki uyg'unlik va ma'naviy yuksalish tuyg'ularini uyg'otishning asosiy yo'lidir. Inklyuziv muhitda san'at, ayniqsa tasviriy san'at, o'quvchilarni o'zini anglash, o'z his-tuyg'ularini ifoda etish va atrofdagi borliqni go'zallik mezonida idrok etishga yo'naltiruvchi eng tabiiy va insoniy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tasviriy san'at vositalari rang, chiziq, shakl, kompozitsiya, faktura o'quvchilarning hissiy dunyosiga bevosita ta'sir etib, ularning ruhiy muvozanatini, ijobiy emotsional holatini va ijodiy faolligini oshiradi. Bu jarayon, ayniqsa, inklyuziv ta'lim sharoitida o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ularning o'ziga xos qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, o'z imkoniyatlariga ishonchni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, estetik tarbiya o'quvchini faqat san'atni o'rganishga emas, balki san'at orqali o'zini va dunyoni anglashga yo'naltiradi. Xulosa qilib aytganda, tasviriy san'at vositalari orqali estetik tarbiya inklyuziv ta'limning asosiy g'oyalaridan biri "har bir shaxsning imkoniyatini ochish" tamoyilini ro'yobga chiqaruvchi eng samarali yo'nalishlardan biridir. Bu jarayon o'quvchini insoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalaydi, unda hayot go'zalligini anglash, uni yaratish va boshqalar bilan bo'lishish madaniyatini shakllantiradi. Shu bois, san'at ta'limi nafaqat ijodiy ko'nikmalarni, balki insonning estetik va ma'naviy butunligini kamolga yetkazuvchi muhim pedagogik tizim sifatida e'tirof etilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
2. Vygotskiy L.S. Psixologiya iskusstva. – Moskva: Pedagogika, 1999.

3. Nemenskiy B.M. Esteticheskoye vospitaniye uchashchikhsya. – Moskva: Prosveshcheniye, 1987.
4. Yoqubov H. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
5. Mahmudov M. Pedagogik mahorat va ijodkorlik asoslari. – Toshkent: Fan, 2020.
6. Omonov A., Sodiqova D. San’atshunoslik va ta’limda kreativ metodlar. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
7. Karomatov S. Inson estetik tarbiyasi va san’atning ijtimoiy mohiyati. – Samarqand: SamDU, 2018.
8. Xudoyberdiyeva N. Inklyuziv ta’lim jarayonida estetik tarbiya muammolari. – “Pedagogika va Psixologiya” jurnali, 2023.